

**HOZIRGI XITOY TILIDA OTLARNING AFFIKSATSIYA YORDAMIDA YASALISH XUSISIYATLARI HAQIDA**



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7351420>

**ABDUSAMATOV Kamronbek**

**Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Hashimova S.A.**

This article is devoted to the study of the formation of nouns with the help of affixation in the modern Chinese language.

Sun Chansuy so‘z yasalishining prefiksal uslublariga, ildiz bo‘g‘inlariga 老 “lao”(keksa, qari) va 阿 “a” formal morfemalarining qo‘shilish yo‘li bilan yasalgan so‘zlarni ham mansub deb hisoblaydi<sup>1</sup>. Bu prefikslar xitoy tili leksikologiyasi bo‘yicha olib borilgan boshqa qator ishlarda ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Ikkala prefiks ham so‘z yasalish jarayonida faqatgina jonli predmetlarni (insonlar, hayvonlar, qushlarni) belgilab beruvchi otlarni yasaydi. Masalan: 老 “lao” prefiksi qarindosh - urug‘chilik atamalari bo‘lgan otlarni yasaydi, bunday so‘zlar kattaligi (“yosh kattaligi”) bo‘yicha aka va o‘g‘illarni belgilab beradi. 老大 “laoda” (老 “lao” “qari”, “keksa” + 大 “da” “katta”) – “akalarning (o‘g‘illarning) kattasi”, 老大 “laoda” (老 “lao” – “qari”, “keksa”+“da” – “katta”) – “akalarning (o‘g‘illarning) kattasi”, 老二 “laoer” (老 “lao” – “qari” + 二 “er” – “ikki”) – “yoshi bo‘yicha ikkinchi aka” ( “o‘g‘il”), 老三 “laosan” (老 “lao” “qari” + 三 “san” “uch soni” ) – “kattaligi bo‘yicha uchinchi farzand”, 老几 “laoji” (老 “lao” “qari” + 几 “ji” “necha” ) – “yoshi bo‘yicha o‘gillarning kattasi qaysi?”, 老师傅 “laoshifu” (老师 “lao”- “o‘qituvchi”, 傅 “fu” – “o‘qituvchi”) – “ustoz” (master), 老先生 “laoxiansheng” (老 “lao”- “keksa”, “qari” + “xianshng” – “janob”) – “yoshi katta janob”, 老板 “laoban” (老 “lao” (“katta”) + 板 “ban” (“doska”)) – “boshliq”; 老百姓 “laobanxing” (老 “lao” - “keksa”+ 百 “ban” – “yuz” + 姓 “xing” – “familya”; 老鹰 “laoying” (“lao” – “keksa” + “ying” – “burgut”) - “burgut”;

Bu prefiks qarindosh - urug‘chilikka bog‘liq bo‘lmagan holdagi bir necha otlarni ham yasashda ishtirok etishi mumkin: Masalan: 老师 laoshi (老 “lao” “qari” + 师 “shi” “ustoz”) – “o‘qituvchi”, 老板 laoban (老 “lao” “qari” + 板 “ban” “doska,taxta” ) – “xo‘jayin”, “ega”, “boshqaruvchi”, 老乡 laoxiang (老 “lao” -“qari” + 乡 “xing” – “vatan”) – “hamyurt”, “vatandosh”. Ba’zida 老 “lao” (“keksa”, “qari”) so‘z yasovchi morfemasini qush va hayvonlarni belgilab beruvchi otlar tarkibida ham prefiks deb hisoblashadi. Masalan: 老虎 laohu (老 “lao” – “qari” + 虎 “hu” – “yo‘lbars”, “hafli joy”) – “yo‘lbars” ;老鼠 laoshu (老 “lao” – “qari” + 鼠 “shu” – “sichqon”) – “sichqon”, – c“alamush”; 老鸭 laoya (“lao” – “qari” + 鸭 “ya” “o‘rdak”) – “qarg‘a”; 老 “lao” (“keksa”, “qari”) prefiksi bir asosdan tashkil topgan familiyalarga qo‘shilgan holda ham qo‘llanadi va atoqli otlarni yasaydi. Familiyaga 老 “lao”(keksa, qari) prefeksini qo‘shilganda bu so‘z ijtimoiy ma’noga ega bo‘lib, familiyaga “janob” so‘zi qo‘shilganidek ma’noga ega bo’ladi. Bu I sifatida

<sup>1</sup>孙常叙。汉语词汇. - 长春, 1956 年.- 139 –页.141。

fikrning isboti sifatida quyidagi misollaeni ko'rishimiz mumkin. Masalan: 老王 “Lao Wang” (“lao”- “qari” –“keksa” + “Wang”-ism) – “Janob Wang”, 老李 “Lao Li” (老 “lao”– “qari” + “Li”-ism) – “Janob Li”<sup>2</sup>.

So'nggi vaqlarda 老 “lao” (“keksa”, “qari”) prefiksi yordamida turli xil modellardagi otlar yasalishi urf bo'lmoqda. Ulardan ayrimlari bilan tanishib chiqamiz:

- a) 老 “lao” (“keksa”, “qari”) joy nomini ifodalovchi otlarni yasashda ham keng qo'llaniladi : 老北京 “laobeijing” (老 “lao”–“keksa”, “qari” + “Pekin” shahar nomi ) –“asl pekinlik”, 老北大 “laobeida”(老 “lao”- “keksa”, “qari”+ 北 “be”shimol +大“da” katta) – bu yerda Pekin universitetida uzoq muddat faoliyat yuritgan shaxs (“o'qituvchi”, “ishchi”) ma'nosida;
- b) 老 “lao” (“keksa”, “qari”) + shaxslararo, o'zaro biror – bir mafkuraviy munosabatni ifodalovchi otlarni yasashda ham ishtirok etadi.

Masalan: 老正统 “laozhengtong”(老 “lao”- “keksa”, “qari” + 正统 “sodiq”) – “e'tiqodi mustahkam odam”, 老关系 “laoguanxi” (老 “lao”- “keksa”, “qari” + 关系 “munosabat”) – “eski qadrdonlar”.

#### 阿 “a” prefiksi

阿 “a” morfemasi unli tovush hisoblanab prefix vazifasini ham bajaradi.

阿 “a” prefiksi qarindosh - urug“chilik atamalari bo'lgan otlarni yasaydi, ba'zida ular qo'shimcha ma'no - mehr ma'nosini ham o'z ichiga oladi. Masalan: 阿父 “afu” – 阿 “a”+ 父 “fu” – “ota” – ( “ota” (“buva”, “qaynota”), (阿 “a” + 母 “mu” –“ona”) – “ona”, “volida”, 阿姨 “ayi”(“a”+ 姨 “yi” - “xola”, “amma”, 阿哥 “age” (阿 “a” + 哥“ge” – “aka”) – “aka”, 阿婆 “apo” (阿“a” + 婆 “po” –“buvi”) –“buvijon”, 阿爹 “adie” (阿“a” – 爹 “ota”, “padari buzrukvet”) – “ota” ( otaga hurmat ma'nosida ishlatiladi), 阿猫 “amao”(阿 “a” + 猫“mao” – “mushuk”) – “mushukcha”, “mushukjon” so‘zida ham kichraytirish va mehr ma'nosida bor<sup>3</sup>.

Izoh: Sun Chansuy guvohlik berishicha, 阿 “a” so‘z yasovchi morfemasi ba'zi bir shevalardagina *ishlatilgan*, ammo badiiy adabiyot asarlarida tarqalganidan so‘ng, u mamlakatning butun aholisiga ma'lum bo'ldi.

Quyida yana bir ot yasovchi 小“xiao” (“kishkina”) prefiksini o'rib chiqamiz.

#### 第 “di” – “...chi” – prefiksi

第 “di” (“...chi”) prefiksi ketma-ketlikni ifodalashda hizmat qiladi. Bu uning yagona funksiyasi. Masalan: 第一 – “diyi”(第“di” – “...chi” + 一 “yi” – “bir”) – “birinchi”, 第二 “dier”(第 “di” – “...chi” + 二 “er” –“ikki” ) – “ikkinch”, 第三 “disan” – 三 “ush”) “uchinch” shu kabilardir.

#### 小“xiao” (“kishkina”) prefiksi

Chao Yuanjinyaning fikriga ko'ra 小 “xiao” – “kichkina” prefiksi haligacha to'liq prefix maqomini olgani yo'q, chunki uning dastlabki ma'nosini yo'qtganligi juda nisbiy masala. Masalan otasining ismini aytganda ushbu so‘z ota va o'g'il farzand hamda to'ng'ich va kenja o'g'il qarindoshlik aloqasini ajratishda qo'llaniladi. Chao Yuanjinyaning fikriga ko'ra 小 “xiao” – “kichkina” prefiksini erkalash ma'nosida keluvchi prefikslar qatoriga qo'shgan. Masalan: 小姐 “xiaojie” (小“xiao” – “kichkina” + 姐 “jie”–“opa”) – “honim”, “miss” (murojat ma'nosida), 小够 “xiaogou” (小“xiao”–“kichkina” + 够 “gou”–“kuchuk”, “ko'ppak”) – “kuchukcha”, 小 辩 “xiaobian” (小“xiao”–“kichkina” + 辩 “bian” –“o'rim”) – “kokil”, “o'rim”<sup>4</sup>.

<sup>2</sup>孙常叙。汉语词汇. - 长春, 1956 年.- 139 –页.142。

<sup>3</sup>孙常叙。汉语词汇. - 长春, 1956 年.- 139 –页.143。

<sup>4</sup>俄汉词典。商务印书馆。北京, 1985 年

Yuqorida ma'lumot berilgan 小 “xiao” – “kichkina” prefiksi yordamida neologizm (yangi kirib klgan so‘zlar) larning ham bir qator ko‘rinishlari hosil qilinadi.

Masalan: 小气侯 “xiaoqihou” (“小“xiao” – “kichkina” + 气 “qi” – “havo” + 侯 “hou” – “vaqt”), 小公主 “xiaogongzhu” (“小“xiao” – “kichkina” + 公 “gong” – “umumuy”, “davlat” + 主 “zhu” – “boshliq”) – “kichkina malika” (oiladagi yagona qiz farzandga nisbatan), 小皇帝 “xiaohuangdi” (“小“xiao” – “kichkina” + 皇帝 “huang”- “huangdi” – “imperator” – “kichkina imperator”, “valiahd”<sup>5</sup>.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek “affiksatsiyaning iikita turi mavjud bo‘lib bular prefislar va suffikslardir” deb aytib o‘tgan edik. Quyida affiksatsiyaning ot yasovchi suffikslar bilan tanishib chiqamiz.

**Ot yasovchi suffikslar:**

子 “zi” – “farzand”, 儿 “er” (“o‘g‘il”), 头 “tou” (“bosh”), 家 “jia” (“uy”, “oila”), 者 “zhe”, 巴 “ba” suffikslari.

Derivatsiyaning yuqori darajasiga ega ot suffikslaridan avvalambor 子 “zi”, 儿 “er”, 头 “tou” (“bosh”) suffiksal morfemalarni aytish lozim.

Liu Shusianning aytishicha, uchta yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan suffikslar ichida 头 “tou” eng barqarordir, ya’ni bu suffiks yordamida yasalgan so‘zlar zamonaviy xitoy tilida bu suffikssiz qo‘llanilmaydi. 子 “zi”- “farzand” suffiksi yordamida yasalgan so‘zlarning ba’zilari esa, ushbu suffikssiz ham qo‘llanilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan ot yasovchi uchta suffiksidan tashqari, 家 “jia” (“uy, oila”), 者 “zhe”, 巴 “ba” kabi suffikslar ham mavjuddir.

Birinchi ikkita morfema ot kategoriyasiga mansub ko‘plab so‘zlarni yasaydi. Bu maskur morfemalarni maxsuldarligi haqida va bunga bog‘liq ravishda xitoy affiksal so‘z yasalishi tuzilishidagi o‘rni haqida gapirish imkoniyatini beradi.

子 “zi” – **suffiksi** (affiksal morfemasi) predmet umumiylar ma’nosiga ega otlarni yasaydi. Bu eng maxsuldar morfema hisoblanadi. U umumishlatiladigan va atama leksikasida keng qo‘llaniladi. Bu borada O. P. Frolova monografiyasidagi statistik ma'lumotlar qiziqarlidir<sup>6</sup>. Uning hisoblariga ko‘ra, biologik atamalar ichida 子 “zi” – “farzand”, va 兒 “er” – (“o‘g‘il”) suffiksal morfemalardan eng maxsuldoi 子 “zi” morfemasidir. Bu morfema yordamida 83,5% atamalar yasaladi, 儿 er – (“o‘g‘il”) morfemasi yordamda esa atigi 16,5% so‘z yasaladi.<sup>7</sup>

Jen Sueliang (任学良 – Ren Xueliang) ta‘kidlashicha, bu morfema tipik morfema bo‘lib, “mumtoz” suffiksdir, u bir necha asrdan beri mavjuddir.<sup>8</sup> otlarning yasalishida samaralidir. U turli asoalarga qo‘shili shimumkin. Masalan:

梯子 “tizi” (梯 “ti” – “zina”+ 子 “zi”- “farzand”) – zina, 鞋子 “xiezi” (鞋 “xie” – “oyoq kiyim” + 子 “zi” – “farzand”) – “oyoq kiyim”, 梳子 “shuzi” (梳 “shu” – “taramoq” + 子 “zi” – “farzand”) – “taroq”, 剪子 “jianzi” (剪 “jian” - “kesmoq” + 子 “zi”- “farzand”) – “qaychi”, 房子 “fangzi” (房 “fang” – “hona”+ 子 “zi” – “farzand”) – “uy”, “bino”, 划子 “huazi” (划 “hua”- “haydamoq,suzmoq” + 子 “zi” – “farzand”) – “qayiq, qayiqcha”, 凳子 “dengzi” (凳 “gui” – “ko‘tarilmoq” + 子 “zi”) 子 “zi” – “farzand”) – “skameyka”, 瓶子 “pingzi” (瓶 “ping” – “butilka”,

<sup>5</sup>中国语学新词典。- 北京。 1969

<sup>6</sup> Фролова О.П.. Словообразование в терминологический лексике современного китайского языка. Новосибирск, 1981. – С 210.

<sup>7</sup> Фролова О. П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. – Новосибирск, 1981 г. - С. 96.

<sup>8</sup> 任学良。汉语造词法。- 北京, 1981 年。-页.51。

“tuvak” + 子 “zi” – “farzand”) – “butilka”, 被子 “beizi” (“bei” – “tuzab qoymoq” + 子 “zi” – “farzand”) – “ko‘rpa”, 裤子 “kuzi” (裤 “ku” – “ishton” + 子 “zi” – “farzand”) – “shim”, 柜子 “guizi” (柜 “gui” – “shkaf” + 子 “zi” – “farzand”) – “shkaf”, 帽子 “maozi” (帽 “mao” – “qalpoq” + 子 “zi” – “farzand”) – qalpoq (bosh kiyim), 旗子 “qizi” (旗 “qi” – “banner” + 子 “zi” – “farzand”) – bayroq, 路子 “lu zi” (路 “lu” – “yo’l” + 子 “zi” – “farzand”) – “yo’l”, “chiqish”.

子 “zi” – “farzand” suffiksi yordamida yasalgan so‘zlar turli semantik kategoriyalarga mansub bo‘lib, insonlar, hayvonlar, qushlar, inson tanasi a’zolari, uy-ro‘zg‘or buyumlarini belgilab beradi. Yuqorida misol tariqasida keltirib o‘tilgan so‘zlarning ba’zilari tarixda yakka holda 子 “zi” – “farzand” suffiksiz ishlatilan bo‘lsada, hozirgi kunda ular yakka holda, ya’ni 子 “zi” – “farzand” suffiksiz ishlatilmaydi.

子 “zi” – “farzand” suffiksi yordamida ikki bo‘g‘inli kabi uch bo‘g‘inli so‘zlarni ham yashash mumkin. Masalan: 老头子 “laotouzi” (老 “lao” – 头 “qari”, “keksa” + “tou” – “bosh”, “kalla” + 子 “zi” – “farzand”) – “qariya”, 树林子 “shulinzi” (树 “shu” – “daraxt” + 林 “lin” – “o‘rmon” + 子 “zi” – “farzand”) – “o‘rmon”.

Bu so‘zlar murakkab so‘zlar bo‘lishi mumkin : 老头 “laotou” – “qariya” va 树林 “shulin” – “o‘rmon” bu holatda 子 “zi” – “farzand” suffiksining qoshilishi so‘z ma’nosini o‘zgartirmaydi. 子 “zi” – “farzand” suffiksining murakkab gaplarga qo‘shilishi – xitoy tilining zamonaviy tendensiyasi, so‘zning og‘zaki shaklini shakllantirishga olib keladi.

### 儿 “er” – “o‘g‘il” suffiksi

儿 “er” – “o‘g‘il” suffiksi affiksal morfema bo‘lib, predmetlik umumiyligi ma’noga ega otni yasaydi. Uning etimologik mansub bo‘lgan jufti 儿 “er” – “o‘g‘il” ildizidir.

Xitoy mualliflari qalamiga mansub bo‘lgan xitoy tili leksikologiyasi bo‘yicha ko‘plab ishlarda 儿 “er” – “o‘g‘il” suffiksga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni ko‘plab uchratamiz. Fikrimizni yanada aniqlashtirish maqsadida, Sun Chansu (孙常叙 Xun Changxu)ning “Xitoy tili leksikasi”<sup>9</sup> deb nomlangan katta asarida maskur so‘z yasovchi morfemaga berilgan tavsifni asosiy mazmunini ko‘rib chiqamiz.

Sun Chansu mazkur so‘z yasovchi morfemaning quyidagi to‘rtta vazifasini ko‘rsatadi: emotsiyal (hissiy) holatni yaratish, ildiz morfemasining ma’no mazmunini aniqlash, uning kategorial mansubligini o‘zgartirish va niyoyat bir bo‘g‘inli so‘zning fonetik tuzilmasini o‘zgartirish. Bu vazifalarni har birini alohida o‘rganib chiqamiz.

**Birinchi vazifa** – hissiy konnotatsiyani yaratish 儿 “er” – “o‘g‘il” suffiks ildiz morfema ma’nosiga hissiy baholash xarakteridagi qo‘s Shimcha ma’no beradi va shu sababli subyektiv baholash suffiksi deb nomlanishi mumkin.

Avvaliga 儿 “er” – “o‘g‘il” suffiksi yordamida kichraytirish ma’nosiga ega bo‘lgan so‘zлarni ko‘rib chiqamiz. Masalan: 旗儿 “qier er” (bayroq+ 儿 “er” – “o‘g‘il”) – “bayroqcha”, 盆儿 “pener” (tog’ora+ 儿 “er” – “o‘g‘il”) – “tog‘oracha”, 帽儿 “maoer” (qalpoq + 儿 “er” – “o‘g‘il”) – “qalpoqcha”, 刀儿 “daoer” (qichoq+ 儿 “er” – “o‘g‘il”) – “pichoqcha”, 小狗儿 “xiaoguor” (小 “xiao” – “kichkina” + 狗 “guo” – “kuchuk” + 儿 “er” – “o‘g‘il”) – “kuchukcha”, 小猫儿 “xiaomaoer” (小 “xiao” – “kichkina” + 猫 “mao” – “mushuk” + 儿 “er” – “o‘g‘il”) – “mushukcha”,

<sup>9</sup>孙常叙。汉语词汇。- 长春, 1956年。-页.148.

水珠儿 “shuizhur” (水“shui” – “suv” + “zhu” – “marvarid” + 儿 “er”- “o‘g‘il”) – “suvyig‘uvchi”, 指头儿 “zhitour” (指“zhi” – “barmoq” + 头“tou” – “bosh”, “kalla” + 儿 “er”- “o‘g‘il”) – “barmoqccha”.

Mehr ma’nosiga ega bo’lgan so’zlar yasalishida ham 儿 “er” suffiksining ishtirokini kuzatishimiz mumkin . Masalan: 孩儿 “haiер” (孩 “hai” – “bola” + 儿 “er”- “o‘g‘il”) – “bolacha”, 宝贝儿 “baobeir” ( 宝贝 “baobei” – “go‘dak” + 儿 “er”- “o‘g‘il”) – “go‘dakcha”, 眼泪儿 “yanleir” (眼泪 “yanlei” – “ko‘z yoshi” + 儿 “er”- “o‘g‘il”) – “ko‘z yoshcha”<sup>10</sup>.

Kamdan kam holatlarda maskur 儿 “er”- “o‘g‘il” suffiks yasama so‘zga birlashgan vaziyatda kamsitish ma’nosini olib kiradi. Sun Chansu<sup>11</sup> bu holatni yagona bo‘lgan 教员儿 “jiaoyuanr” (教员 “jiaoyuan” o‘qituvchi + 儿 “er”- “o‘g‘il”) – “o‘qituvchicha” so‘zi bilan izohlaydi va bunda quyidagi izohni beradi. Qadimgi Xitoya o‘qituvchi, muallimlarni shunday nomlashgan. Hozirda esa bu biroz bowqacha nomlanadi<sup>12</sup>.

**Ikkinchı vazifa** – ildiz morfemaning ma’nosini aniqlashtirish. Bu jarayon turlicha bo‘ladi, ba’zida mazkur suffiks ildiz ma’nosini aniqlashtiradi va natijada ildiz ma’nosini torayadi, ba’zida esa muayyan tushunchani belgilab beruvchi ildizdan farqli ravishda mavhum ma’noga ega so‘zni yaratadi.

Quyida ildizga 儿 “er”- “o‘g‘il” suffiksi qo‘shilish natijasida vujudga kelgan semantik modeifikatsiyalarni ko‘rsatuvchi bir nechta misollarni keltiramiz. Masalan:

口 “kou” (og’iz) – teshik (har qanday), 口儿 “kouer” – leksik, 门口儿 “menkouer” – yasama tarkibda *kirish, chiqish* ma’nosini anglatadi. 鼻 “bi” – burun, 鼻儿 “bier” – qulqocha (biror bir predmetning ushlagichi), 针鼻儿 “zhenbier” – igna teshigi, qulog’i, 门鼻儿 “menbier” – qulf<sup>13</sup>.

**Uchinchi vazifa** – ildiz morfemasining kategorial mansubligini o‘zgartirish. Bu vazifa 儿 “er”- “o‘g‘il” suffiksi fe’l va sifat morfemalaridan ot yasagan holda kuzatiladi.

Fe’ldan yasalgan otlar: 盖 “gai” – “yopmoq”, 盖儿 “gaier” (盖 “gai” – “yopmoq” + 儿 “er”- “o‘g‘il”) – “qopqoqcha”, 画 “hua” – “rasm chizmoq”, 画儿 “huaer” (画 “hua” – “rasm” + 儿 “er”- “o‘g‘il”) – “rasm”, “rasmcha”, 包 “bao” – o‘ramoq, 包儿 baoer (包 “bao” – “o‘ramoq” + 儿 “er”- “o‘g‘il”) – “tugun”, “o‘ram”, 空 “kong” – “ozod qilmoq”, 空儿 konger (空 “kong” – “ozod qilmoq” + 儿 “er”- “o‘g‘il”) – “bo‘sh vaqt”.

Sifatdan yasalgan otlar.

尖 “jian” – o‘tkir, 尖儿 jianer (尖 “jian” – “o‘tkir” + 儿 “er”- “o‘g‘il”) – “pichoq uchi”, 短 “duan” – “qisqa”, “kalta”, 短儿 duaner (短 “duan” – “qisqa, kalta” + 儿 “er”- “o‘g‘il”) – “salbiy tomoni”, “kamchiligi”, 亮 “liang” – yorug’, 亮儿 lianger (亮 “liang” – “yorug” + 儿 “er”- “o‘g‘il”) – “yorug’lik”, “nur”, 干 “gan” – “quruq”, 干儿 ganer (干 “gan” – “quruq” + 儿 “er”- “o‘g‘il”) – “quritilgan mahsulotlar”.

**To‘rtinchi vazifa** – bir bo‘g‘inli so‘zning fonetik tuzilmasini o‘zgartirish. Bu vazifa shundan iboratki, zamona viy xitoy tilida ba’zi bir bir bo‘g‘inlilar faqatgina 儿 “er”- “o‘g‘il” suffiksi bilan tilda mavjud bo‘lishi mumkin. Suffiks o‘zi qo‘shilgan morfema bilan qo‘silib, u bilanb birga bir bo‘g‘inni tashkil qiladi.<sup>14</sup>

Mazkur turdag'i leksik birliklar juda kamdir. Bir nechta misollarda ko‘rib chiqamiz:

<sup>10</sup>中国语学新词典。 - 北京。 1969.

<sup>11</sup>孙常叙。汉语词汇。 - 长春, 1956年。-页.150.

<sup>12</sup> Коротков Н. Н. Основные особенности морфологического строя китайского языка – Москва, 1968г. - С.122.

<sup>13</sup> Коротков Н. Н. Основные особенности морфологического строя китайского языка – Москва, 1968г. - С.122.

<sup>14</sup>Коротков Н. Н. Основные особенности морфологического строя китайского языка – Москва, 1968г. - Стр. 123.

景儿 “jngr” (peyzaj +儿 “er”- “o‘g‘il”) – “ko‘rinish”, “peyzaj”, 簪儿 “zanr” (shpilka+儿 “er”- “o‘g‘il”) – “soch uchun foydalaniladigan shpilka”, 爪儿 “zhuar” (tirnoq, panja+儿 “er”- “o‘g‘il”) – “tirnoq”, “tuyoq”, 葡儿 “pur” (uzum+儿 “er”- “o‘g‘il”) – “vino qo‘ziqorini” (mog‘ori).

头 “tou” – “bosh” suffiksi affiksal morfema bo‘lib, turli semantik qatorlarga mansub otlarni yasaydi. Mazkur affiksal morfemaning etimologik korreliyati 头 “tou” – bosh, kalla mustaqil morfemasidir, bu mustaqil morfema zamonaviy xitoy tilida bir bo‘g‘inli so‘z maqomiga ega. Shuni ta’kidlash lozimki, 头 “tou”–“bosh” formatini qo‘llash yasovchi ildizlarning nisbatan tor qatori bilan chegaralangan. Mazkur suffiks yordamida yasalgan so‘zlarning soniga kelsak, ularning soni 子 “zi”- “farzand” va 兒 “er”- “o‘g‘il” suffikslar yordamida yasalgan so‘zlarning sonidan ancha kamdir.

头 “tou” – “bosh” affiksal morfemaning fonetik xususiyatlariga kelsak, shuni nazarda tutish lozimki, bir xil leksik birliklar tarkibida u etimologik ohangini saqlab qolsa, boshqa leksik birliklar tarkibida ohangning qisqarishi ya’ni reduksiya kuzatiladi.

头 “tou” (“bosh”) formanti misolida 头 “tou” (“bosh”) mustaqil morfemasini “sof” suffiksga asta – sekin aylanish jarayonini kuzatamiz.

Grammatizatsiyalashning birinchi bosqichida 头 “tou” (“bosh”) mustaqil morfema bilan semantik aloqani hali saqlab qoladi. U muayyan predmetlarni belgilab beruvchi, asosan, dumaloq, oval yoki silindrik shakldagi, ya’ni o‘tkir burchakka ega bo‘lmagan va o‘z konfiguratsiyasi bilan bosh (kalla)ni eslatuvchi predmetlarni belgilab beruvchi otlarni yasaydi. Maskur guruhga oid so‘zlarning eng xarakterli misollarini ko‘rsatib o‘tamiz: Masalan: 木头 mutou (木“mu” – “daraxt” +头 “tou” – “bosh”) – “daraxt”, 石头 shitou ( 石“shi” – “tosh” +头 “tou” – “bosh”) – “tosh”, 肩头 jiantou (肩 “zh” – “yelka”+头 “tou” – “bosh”) – “yelka”, 指头 zhitou (指 “zhi” – “barmoq” +头 “tou” – “bosh”) – “barmoq”.

Grammatizatsiyalanishning ikkinchi bosqichida 头 “tou” suffiksi 头 “tou” mustaqil ildizdan ajraladi. U turli semantik qatorlarga mansub bo‘lgan har xil mavhum tushunchalar bilan beruvchi otlarni yasaydi. Masalan: 想头 xiangtou (想 “xiang” – “o‘ylamoq” +头 “tou” – “bosh”) – “fikr -mulohaza”, “tasavvur”;

念头 niantou (念 “nian” – “eslamoq”, “o‘qimoq” +头 “tou” – “bosh”) – “fikr”, “g‘oya”, “istak”, “xohish”, 苗头 miaotou (苗 “miao” – “kurtak” +头 “tou” – “bosh”) – “ishora”.

Ushbu 头 “tou” (bosh) suffiksi yordamida, so‘zlar muayyan yoki mavhum tushunchalar bilan ifodalanishi mumkin, ular hamma joyda neytral ohangda foydalaniladi (ovozi balandligi kamayadi). Ushbu suffiks konkret ma’noli otlarni, asosan dumaloq, oval va silindr shaklga ega bo‘lgan otlarni, aniqroq qilib aytganda esa uchli shaklga ega bo‘lmagan otlarni yasaydi.

Masalan:

- a) 头“tou” (bosh) suffiksi aniq tushunchani ifodalaydi.
  - 舌头 “shetou” (舌“she” – “til” + 头“tou” – “bosh”) – “til” (tana a’zosi);
  - 枕头 “zhentou” (枕 “zhen” – ( “boshini nimagadur qo‘yish) + 头 “tou”-“bosh”) – “yastiq”;
  - 骨头 “gutou” (骨 “gu” – “suyak” + 头 “tou” – “bosh”) – “suyak”;
  - 馒头 “mantou” (馒“man” – “parda tayyorlangan” + 头 “tou” – “bosh”) – “mantou” (parda tayyorlangan hamirli yegulik);
    - 指头 “zhitou” (指 “zhi” – “barmoq” +头 “tou” – “bosh”) – “barmoq”;
    - 斧头 “futou” (“斧” – “fu” – “bolta” +头 “tou” – “bosh”) – “bolta, bolg‘a”;
    - 拳头 “quantou” (拳“quan” – “musht” + 头 “tou” – “bosh”) – “musht”;
  - 砖头 “zhuantou” (砖 “zhuan” – “g‘isht ko‘rinishidagi predmet” + 头“tou” – “bosh”) – “g‘isht”;

肩头 “jiantou” (肩“jian” – “yelka” +头 “tou” – “bosh”) – “yelka”<sup>15</sup>.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish mumkinki, ushbu ot yasovchi suffiks qattiq jisimlar nomlarini yasashda keng qo'llaniladi<sup>16</sup>.

b) 头“tou” (bosh") suffiksi mavhum tushunchani ifodalashda ham keng qo'llaniladi.

Masalan:

想头 – “xiangtou” (想 “xiang” – “xohlamoq” +头“tou” – “bosh”) – “tasavvur”;

念头 – “niantou” (念 “nian” – “o'qimoq” +头“tou” – “bosh”) – “g'oya”;

话头 – “huatou” (话 “hua” – “so'z”, “nutq” +头“tou” – “bosh”) – “nutq”;

由头 – “youtou” (由 “ko'rsatma bermoq” +头“tou” – “bosh”) – “sabab”;

来头 – “laitou” (来 “lai” – “kelmoq” +头“tou” – “bosh”) – “kelib chiqish”, “sabab”<sup>17</sup>;

盼头 – “pantou” (盼 “pan” – “kutmoq” +头“tou” – “bosh”) – “umid”;

劲头 – “jintou” (劲 “jin” – “energiya” +头“tou” – “bosh”) – “enrgiya”;

关头 – “quantou” (关 “guan” – “yopmoq”, “o'chirmoq” +头“tou” – “bosh”) – “hal qiluvchi daqiqa”;

准头 – “zhuntou” (准 “zhun” – “izm bermoq” +头“tou” – “bosh”) – “haqiqat”;

火头 – “huotou” (火 “huo” – “olov” +头“tou” – “bosh”) – “g'azab”;

甜头 – “tiantou” (甜 “tian” – “shirin” (tushga oid) +头“tou” – “bosh”) – “shirinlik”;

苦头 – “kutou” (苦 “ku” – “bor kuchi bilan” +头“tou” – “bosh”) – “qayg'u”;

赚头 – “zhuantou” (赚 “zhuan” – “foyda olmoq” +头“tou” – “bosh”) – “foyda”;

当头 – “dangtou” (当 “dang” – “...vaqtida” +头“tou” – “bosh”) – “garov”;

风头 – “fengtou” (风 “feng” – “shamol” +头“tou” – “bosh”) – “holat”;

### 家 “jia” (oila, uy) suffiksi

家 “jia” (oila, uy) suffiksi postpozitiv morfema bo'lib, u yoki bu faoliyat bilan band bo'lgan shaxslarni belgilab beruvchi otlarning ko'p sonli qatorini tashkil qiladi. Bu morfema etimologik jihatdan 家 “jia” (oila,uy) ildiz morfemasi bilan mutanosibdir.

家 “jia” so'z yasovchi morfema birlamchi leksik ma'noni to'liq yo'qotib, shu bilan mazkur semantik qatordagi so'zlarda etimologik ohangni saqlab qoladi. Masalan: 专家 zhuanjia (专 “zhuan” – “maxsus” +家 “jia” – “oila”, “uy”) – “mutaxassis”, “ekspert”, 作家 zuojia” (作 “zuo” – “qilmoq” + 家 “jia” “oila”, “uy”) – “yozuvchi”, 歌唱家 “gechangjia” (歌 “ge” – “qo'shiq” +唱 “chang” – kuylamoq + 家 “jia” “oila”, “uy”) – “qo'shiqchi”, 发明家 “famingjia” (发 “fa” – “jo'natmoq” +明 “ming” – “yorqin” (kashfiyot) + 家 “jia”-“oila”, “uy”) – “kashfiyotchi”<sup>18</sup>.

### 者 “zhe” suffiksi

者 “zhe” suffiksi formal morfema bo'lib, 家 “jia”-“uy”, “oila” formatga o'xshab analogik tarzda o'z semantik – morfologik tafsiflariga ko'ra ot kategoriyasiga mansub bo'lgan leksik birliklarni yasaydi. Yasama so'zda etimologik ohangi saqlanib qoladi.

者 “zhe” suffiksi so'z yasalishida alohida o'rinegallaydi. Qadimgi xitoy adabiy tilidan kelib chiqqan ushbu qo'shimchani juda samaralidir, uning ishlatilish o'rni juda kengdir.

者 “zhe” suffiksini maxsuldor so'z yasovchi vositalarga mansub deb hisoblash lozim. Bu suffiks yordamida u yoki bu faoliyat sohasida band bo'lgan shaxslarni hamda ma'lum ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazarda bo'lgan shaxslarni belgilab beruvchi otlarning ko'p sonli qatori yasaladi. Masalan:

<sup>15</sup> 汉俄词典。北京, 1988 年

<sup>16</sup> 现代汉语词典。-北京 1979

<sup>17</sup> 陆志韦。“汉语的构词法”。北京, 1964 年

<sup>18</sup> 汉俄词典。北京, 1988 年

作者 “zuozhe” (作 “zuo” –“qilmoq” +者 “zhe”) – “muallif”, “yozuvchi”, 读者 “duzhe” (读 “du” – “ovoz chiqarib o‘qimoq” +者 “zhe”) – “kitobhon”, 译者 “yizhe” (译 “yi” –“tarjima qilmoq” +者 “zhe”) – “tarjimon”, 学者 “xuezhe” (学 “xue” –“o‘rganmoq” 者 “zhe”)– “daho”, 记者 “jizhe” (记 “ji” –“eslamoq” +者 “zhe”) – “korrespondent”, “reportyor”, “jurnalist”, 领导者 “lingdaozhe” (领导 “lingdao” –“boshqarmoq” +者 zhe) – “boshliq”<sup>19</sup>.

Undan tashqari, 者 “zhe” suffiksi yordamida yasalgan va faoliyati hamda ijtimoiy – siyosiy qarashlariga bog‘liq bo‘lmagan tarzda shaxslarni belgilab beruvchi so‘zlar ham mavjud. Masalan: 前者 “qianzhe” (前 “qian” – “old taraf” +者 “zhe”) – “birinchi” (oldindagi shaxs), 后者 “houzhe” (后 “hou” – “ohiri”+者 “zhe”) – “ohirgi” (ohiridai shaxs), 强者 “qiangzhe” (强 “qian” – “kuchli” +者 “zhe”) – “kuchli” (inson), 弱者 “ruozhe” (弱 “ruo” – “zaif”+者 “zhe”) – “kuchsiz” (inson).

者 “zhe” so‘zining boshlang’ich ma’nosi (venyan sintaktik yordamchi so‘zi subyekt harakatini) ko‘rsatadi. Masalan:

仁者安人，智者利人

“renzhe an ren, zhizhe li ren”

“inson parvar bo‘lsa insonlarga taskin beradi, kim dono bo‘lsa, ularga foyda keltiradi”,

为此诗者

“wei ci shizhe”

“bu she’rni yaratgan inson”.

者 “zhe” suffiksini shu kabi so‘z larni yaratishga hizmat ko‘rsatadi.

### 巴 “ba” - “umid qilmoq” suffiksi

巴 “ba” –“umid qilmoq” suffiksi otning leksik – grammatick xususiyatlariga ega bo‘lgan leksik birliklarni yasaydi. Ushbu suffiks kam maxsuldor morfema bo‘lib, atigi bir nechtagina so‘zlarni yasaydi. Ammo shunga qaramasdan u xitoy tili so‘z yasovchi vositalarining ba’zi bir xususiyatlarini tushunish uchun ma’lum ahamiyatga ega. Chunki u birlamchi leksik mazmuni desemantizatsiyasini yuqori darajasiga erishgan “sof” formatdir. Bu suffiks biror – bir narsaga bog‘langan, yopishgan, bog‘liq bo‘lgan degan ma’nolarni anglatadi. Masalan: 下巴 “xiaba” (下 “xia” –“quyi” +巴 “ba” – “umid qilmoq”) – “ iyyak”, 尾巴 “weiba” (尾 “wei” –“dum” +巴 “ba” –“umid qilmoq”) – “dum”, 泥巴 “niba” (“ni” –“kir” +巴 “ba” –“umid qilmoq”) – “kir”, 嘴巴 “zuiba” (嘴 “zui” –“og’iz” +巴 “ba” –“umid qilmoq”) – “shapaloq”.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI (REFERENCES)

- 孙常叙。汉语词汇.- 长春, 1956年.- 139 –页.141。
- 俄汉词典。商务印书馆。北京, 1985年
- 陆志韦。“汉语的构词法”。北京, 1964年
- 汉俄词典。北京, 1988年
- 现代汉语词典.-北京 1979
- Коротков Н. Н. Основные особенности морфологического строя китайского языка – Москва, 1968.
- Фролова О.П.. Словообразование в терминологический лексике современного китайского языка. Новосибирск, 1981.
- 任学良。汉语造词法。- 北京, 1981年。

<sup>19</sup>汉俄词典。北京, 1988年

9. 中国语学新词典。- 北京。1969.
10. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
11. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
12. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с* (p. 361).
13. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
14. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
15. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
16. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
17. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
18. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
19. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
20. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
21. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
22. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
23. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0
24. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. С. 187-188.
25. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ 3,384,2019